

ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025-yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 553,6 mln AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 108,6 mln AQSH dollariga yoki 4,1 % ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 688,0 mln AQSH dollariga (2024 yilning yanvar- avgust oyiga nisbatan 5,9 % ga kamaydi) va import hajmi 1 865,6 mln AQSH dollariga (3,4 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 177,7 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (yanvar-avgust, mln AQSH dollari)**

Davlatlar	2023 y.	2024 y.	2025 y.
Koreya Respublikasi	940,2	637,1	655,5
Xitoy	828,0	756,5	616,2
Rossiya Federatsiyasi	195,6	332,8	346,4
Qozog'iston	357,6	265,1	235,6
Qirg'iziston	167,9	89,5	106,8
Braziliya	159,5	84,7	91,3
Afg'oniston	0,4	60,1	80,7
AQSh	100,4	78,2	55,7
Meksika	132,8	92,6	50,7
Turkiya	82,1	40,4	36,5
Belarus	24,9	29,9	33,2
Germaniya	30,1	9,7	32,6
Slovakiya	17,5	28,0	30,0
Hindiston	40,4	21,0	25,7
Vyetnam	7,8	9,2	14,5
Tailand	8,9	7,3	14,4
Pokiston	1,8	17,4	13,2
Polsha	10,8	13,4	13,1
Ozarbayjon	15,9	22,8	12,9

Andijon viloyati jahonning 76 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (25,7 %), Xitoyda (24,1 %), Rossiyada (13,6 %), Qozog'istonda (9,2 %) va Braziliyada (3,6 %) qayd etilgan.


II. ANDIJON VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust, mln AQSH dollari)

Tarkibi	Mln AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024 y.	2025 y.	2024 y.	2025 y.	2024 y.	2025 y.
Jami eksport	731,2	688,0	93,5	94,1	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	42,2	55,4	150,8	131,3	5,8	8,1
Ichimliklar va tamaki	2,5	2,6	53,6	106,9	0,3	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,6	2,2	57,5	136,9	0,2	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	53,4	49,2	7406,5	92,1	7,3	7,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,4	44004,2	521,2	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	6,9	10,3	52,5	150,2	0,9	1,5
Sanoat tovarlari	182,6	127,6	106,7	69,9	25,0	18,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	243,8	224,9	70,3	92,2	33,3	32,7
Turli xil tayyor buyumlar	189,4	196,3	91,5	103,7	25,9	28,5
Xizmatlar	8,7	18,9	114,6	216,7	1,2	2,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,2 % ni tashkil etib, asosiy ulush mashinalar va transport asbob uskunolari (32,7 %), turli xil tayyor buyumlar (28,5 %), sanoat tovarlari (18,6 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari (7,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025-yil yanvar-avgust oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston (33,4 %), Rossiya (27,9 %), Qirg'iz Respublikasi (11,7 %), Afg'oniston (11,7 %), Belarus (4,5 %), Ozarbayjon (1,8 %), XXR (1,7 %), Turkiya (1,1 %), AQSH (0,8 %) va Ukraina (0,8 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,4 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining xsst bo'yicha eksporti tarkibi (2025-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	55 409,8	131,3
5	Sabzavotlar va mevalar	51 399,7	135,0
7	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 843,9	440,9
2	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	912,0	133,2
6	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	836,7	29,5
4	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	362,6	257,1
0	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	49,1	108,5
9	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	5,8	188,7
1	Ichimliklar va tamaki	2 621,0	106,9
11	Ichimliklar	2 621,0	106,9
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2 222,0	136,9
26	To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	1 177,0	172,8
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	502,6	150,1

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
22	Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	445,1	108,7
27	56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	90,0	126,4
24	Probka va yo'goch-taxtalar	7,2	14,2
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	49 205,6	92,1
33	Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	49 205,6	92,1
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	433,5	947,4
42	O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	433,3	521,0
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,2	-
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10 318,0	150,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 861,8	144,4
52	Noorganik kimyo moddalari	747,8	172,0
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	519,9	155,3
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	517,2	226,5
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	447,3	291,1
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	179,9	69,4
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	34,6	253,7
51	Organik kimyo moddalari	9,1	415,6
6	Sanoat tovarlari	127 632,8	69,9
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar	104 942,9	61,5
66	Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	11 651,4	506,3
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	7 385,9	180,6
62	Rezina buyumlari	2 047,0	168,4
68	Rangli metallar	985,8	179,4
67	Cho'yan va po'lat	284,4	8,2
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	213,2	127,4
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	86,0	32,6
61	Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	36,2	87,4
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	224 853,5	92,2
78	Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	141 689,3	89,1
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	72 595,4	99,8
77	Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	5 359,3	121,0
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	2 178,6	32,0
79	Boshqa transport uskunolari	956,4	10025,6
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	768,6	279,1
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	710,4	337,5
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va	532,0	188,5
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	63,5	77,6

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
8	Turli xil tayyor buyumlar	196 310,6	103,7
84	Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	187 237,8	103,8
85	Poyabzal	4214,1	99,4
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	2 531,2	117,5
89	Har xil tayyor buyumlar	1 795,8	88,3
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	242,2	70,4
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	179,6	108,9
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	107,5	626,7
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	2,4	54,4


2025-yil yanvar-avgust oylarida 84,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024 yilning mos davriga nisbatan 2,5 % yoki 2,2 ming tonnaga kamaydi.

Meva va sabzavotlar eksporti

	2024-yil		2025-yil	
	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar
Jami	87 005,1	39 393,2	84 805,9	53 426,5
<u>mevalar va rezavorlar</u>	50 393,8	14 014,3	29 647,4	14 630,5
uzum	1 944,1	1 571,9	3 662,3	3 001,7
gilos	304,6	632,4	170,0	353,3
quritilgan uzum	208,6	159,6	527,0	575,0
o'rik	544,2	626,4	714,7	709,0
xurmo	219,8	151,7	86,3	43,1
quritilgan o'rik	21,2	15,7	159,2	190,4
<u>sabzavotlar</u>	57 357,7	24 762,6	53 328,7	33 801,0
karam	8 600,0	1 553,4	6 492,2	1 860,4
sabzi	25 016,6	3 898,1	13 719,1	2 630,8
qalampir	873,4	368,5	2 906,8	1 773,2
piyoz	5 153,7	833,2	9 322,2	2 319,9
pomidor	2 636,7	2 469,1	2 954,0	2 144,0
bodring	2 593,3	1 836,4	2 483,0	1 100,4
<u>mosh</u>	809,1	555,0	1 423,2	1 040,8
<u>veryong'oq</u>	519,3	334,8	617,8	493,4
<u>boshqalar</u>	48 691,7	10 483,9	42 507,5	8 910,2

2025-yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 53,4 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 36,6 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi (foizda)




2025-yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha 266,7 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 38,8 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,4 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (72,1 %), ip kalava (13,0 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti tarkibi

(2025-yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)



2025-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar eksporti hajmi 18,9 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,8 % ini tashkil etib, 2024 yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (24,2 %), safarlar (turizm) (20,4 %), kompyuter va axborot (17,8 %), transport (14,8 %), va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (22,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, qurilish xizmatlari (12,7 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (7,0 %) hamda boshqa amaliy xizmatlar (3,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

III. ANDIJON VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-avgust oyida import hajmi 1 865,6 mln AQSh dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (55,5 %), sanoat tovarlari (20,0 %) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Andijon viloyatining importi tarkibi

(yanvar-avgust, mln AQSH dollari)


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024 y	2025 y	2024 y	2025 y	2024 y	2025 y
Jami import	1 930,9	1 865,6	78,8	96,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22,0	22,0	155,2	99,9	1,1	1,2
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,4	140,6	116,6	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18,1	26,3	109,9	145,4	0,9	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	125,6	140,7	630,2	112,0	6,5	7,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,0	1,2	39,9	113,0	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	128,1	130,8	64,4	102,1	6,6	7,0
Sanoat tovarlari	376,1	372,6	86,1	99,1	19,5	20,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 126,5	1 035,0	69,5	91,9	58,3	55,5
Turli xil tayyor buyumlar	78,1	71,6	86,3	91,6	4,0	3,8
Xizmatlar	55,1	65,1	114,9	118,3	2,9	3,5

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,4 mln AQSh dollariga kamaydi va 1 800,5 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 65,1 mln AQSh dollariga yetdi.

Andijon viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari

(mln AQSH dollari)



2025-yil yanvar-avgust oylarida Andijon viloyati 63 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Koreya Respublikasi (35,1 %), XXR (32,4 %), Rossiya (8,3 %), Braziliya (4,9 %), Meksika (2,7 %), AQSH (2,7 %), Germaniya (1,7 %) va Turkiya (1,6 %) jami importning 89.4 % ni tashkil etdi.


Andijon viloyatining XSST bo'yicha importi tarkibi
(2025-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

XSST kod	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21 999,7	99,9
4	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	6 133,4	87,2
0	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	5 609,8	79,6
7	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 500,0	467,3
9	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 933,1	134,7
5	Sabzavotlar va mevalar	1 659,4	74,2
6	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	1 589,2	84,0
8	Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1 453,3	170,3
2	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 121,4	111,9
1	Ichimliklar va tamaki mahsulotlari	392,5	116,6
11	Ichimliklar	392,5	116,6
2	Nooziq-ovqat xomashyosi, yoqilg'idan tashqari	26 286,9	145,4
22	Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	8 257,5	180,3
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindalari	5 703,5	186,8
24	Probka va yo'g'och-taxtalar	5 000,8	117,6
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 822,9	118,4
23	Tabiiy kauchuk	2 694,0	92,4
27	O'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	1 384,6	200,1
25	Qog'oz massasi va makulatura	422,4	311,9
28	Metall rudalari va metall parchalari	1,1	1,7
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	140 674,6	112,0
33	Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	10 7625,3	99,6
32	Ko'mir, koks va briketlar	19 745,9	165,2
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	13 303,4	241,3
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1165,3	113,0
42	O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	815,0	79,3
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	315,6	9613,8
41	Hayvonlarning moylari va yog'lari	34,6	-
5	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	130 776,6	102,1
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	39 325,7	121,2
52	Noorganik kimyo moddalari	32 465,5	84,8
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	24 986,3	126,5
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	13 007,7	88,2
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	7 401,2	105,7
51	Organik kimyo moddalari	6 837,4	93,0

XSST kod	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	5 191,3	75,0
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari	1 432,6	100,4
56	O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	128,9	81,2
6	Sanoat tovarlari	372 635,5	99,1
67	Cho'yan va po'lat	162 575,1	104,9
62	Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	79 831,1	93,0
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	78 965,1	97,1
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar	30 429,6	89,8
68	Rangli metallar	8 455,1	77,3
66	Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	8 063,4	120,4
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	2 268,9	295,1
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 613,8	167,3
61	Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	433,5	62,9
7	Mashinalar va transport asbob uskunalari	1 034 978,4	91,9
78	Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	612 396,9	90,2
77	Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari	112 572,8	96,7
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar	98 344,8	98,2
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	90 686,1	98,0
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	81 512,4	135,9
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	28 254,4	113,4
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	6 106,1	15,7
79	Boshqa transport uskunalari	3 665,5	28,4
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1 439,3	94,6
8	Turli xil tayyor buyumlar	71 579,3	91,6
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar	26 345,0	94,3
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	23 058,2	83,9
89	Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	15 211,4	112,3
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	4 094,8	61,2
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 017,2	120,2
84	Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	847,1	98,3
85	Poyabzal	788,7	119,6
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	216,8	179,5

2025 yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 65,1 mln AQSh dollarini yoki jami import hajmining 9,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18,3 % ga ko'paydi.

Xizmatlar importi tarkibi (mln AQSh dollarida)



Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi intellektual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar (84,3 %), boshqa amaliy xizmatlari (12,5 %), AKT xizmatlari (1,8 %) va ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlar (1,1 %)ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Import hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: X.Toxirov Tel: +998742248000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742248000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
--	--	--	---